

Genetika, genomika va biotexnologiyaning zamonaviy muammolari

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazida 2019-yil 16-may kuni "Genetika, genomika va biotexnologiyaning zamonaviy muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Sog'lioni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vakillari, shuningdek, respublikamizning turli oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlaridan 100 dan ortiq mutaxassislar ishtirok etdi.



Konferensiyada turli ekinlar genomikasi va genetikasi, tibbiy genomika va genetika, mikrobiologiya va veterinariya kabi sohalarda keng ko'lamlı masalalar ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, amaliy va sanoat biotexnologiya masalalari, shuningdek, o'simlik va mikroorganizmlarning genomikasi, bioinformatika va biotexnologiyalari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yangi innovatsion biotexnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish istiqbollari muhokama qilindi.

